



TALABALARNI PEDAGOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHDA MA'NAVIY MADANIYATNING AHAMIYATI

Jurayeva Nargiza

FDU magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7860933>

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2023

Accepted: 24th April 2023

Online: 25th April 2023

KEY WORDS

Ma'naviy madaniyat,
insonparvar yondashuv, shaxsiy
yondashuv, pedagogik
professiogramma,
kommunikativlik, gnostik
malaka, empatik qobilyat,
pedagogik mutaxassislik,
pedagogik malaka.

ABSTRACT

Ushbu maqolada talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishlari, fan-texnika yutuqlarini egallashga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ta'lim-tarbiya berish jarayonida talabalarga insonparvar yondashuv zarurligi bo'yicha fikrlar keltirilgan.

Hamkorlikka asoslangan shaxsga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish bugungi kunda ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmaning asosini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda talabaning o'z-o'zini rivojlantirish, fan-texnika yutuqlarini egallashga bo'lgan ehtiyojini qondirish, o'qitish jarayonida unga insonparvar yondashuv zarurligini talab qilmoqda. O'quv jarayonini tashkil etishga insonparvar yondashuvning asosiy vazifasi talabada muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni inkor qilmaydi, balki uning vazifalarini kengaytiradi hamda boyitadi.

Pedagogik faoliyatning xilma-xil yo'nalishlarini tadqiq etishga doir ishlarda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy rivojlantirish masalasi ko'plab ishlarning tadqiqot ob'ekti sifatida belgilangan. Masalan V.A.Slastenin, M.O.Ochilov, N.N.Azixodjaeva, Sh.N.Majitova, B.R.Rahimov, N.M.Ochilovalarning tadqiqotlarida faoliyat, muloqot, pedagogik mahorat, fikrlash va pedagogik taktning o'ziga xos tavsiflari o'rganilgan. L.M.Mitina, M.G.Davletshin, D.N.Arziqulovlar pedagogik kasbini yaxlit va rivojlanib boruvchi psxologik reallik sifatida ko'rib chiqishni taklif etganlar.

Pedagogik faoliyatni shakllanishi va rivojlanishini o'rganishga doir yondashuvlarni tahlil etish asosida bir nechta yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, ko'plab ishlar mehnatdagi shaxsning alohida individual-psixologik o'ziga xosliklarini o'rganishga bag'ishlangan (L.M.Mitina, M.G.Davletshin, D.N.Arziqulova va boshqalar).

Ikkinchidan, ko'pchilik olimlar kasbiy faoliyatdagi yaxlit shaxsni o'rganishga doir yondashuvlarni ishlab chiqqanlar. Ko'plab mutaxassislarning fikricha, shaxsiy yondashuv –



kasbiy faoliyatdagi shaxsning individual o'ziga xosliklarini hisobga olishgina emas, balki eng avvalo, mutaxassis shaxsining shakllanish yo'llarini o'rganishdir (D.A.Beluxin, L.V.Zanina, N.P.Menshikova, N.M.Egamberdieva va boshqalar).

Uchinchidan, qator tadqiqotchilar (M.O.Ochilov, N.N.Azizxodjaeva, F.R.Yuzlikaev, Sh.N.Majitova va boshqalar) qandaydir faoliyat turini hisobga olish asosida kasb tanlash nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlaydilar. Mazkur holatda tadqiqot predmeti sifatida bir tomondan faoliyat sub'ekti sifatidagi inson tavsifi, boshqa tomondan esa, xarakter, mazmun, faoliyat turi, ob'ekt yuzaga chiqadi.

Mazkur yo'nalishlarni ko'rib chiqish asosida biz o'z tadqiqotimizda mazkur uch yo'nalishdagi ma'lumotlarni hisobga olish zarurligiga e'tibor qaratdik.

O'qituvchilik faoliyati "Inson-inson" kasb guruhiga kiradi. Pedagog professiogrammasiga e'tibor qaratilganda, biz mutaxassis yuksak axloqli, kuchli iroda, aniq maqsadga egalik, odamlarni tushuna olishi, e'tiborli bo'lishi, tasodifiy vaziyatlarga tez yo'nalgan bo'lishi, hissiy javobgarlikka ega bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tish lozim.

M.G.Davletshinning fikricha, pedagogik professiogramma (kasbiy tavsifnoma)da bo'lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi kerak:

- shaxsiy xislatlar (bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va b.sh.lar);
- kasbga xos bilimlarga egalik (ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi va b.sh.lar);
- o'z kasbiga xos xislatlar (hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarini egallashi, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tiborni taqsimlay olishi, pedagogik fantaziyaning rivojlanganligi, pedagogik takt va h.o.lar);
- shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg'ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish, talabalarning bilish faoliyatini boshqara olish, o'quv maqsadlarini rejalashtira olish va b.sh.lar);
- muloqotga kirisha olish (kommunikativlik) malakaga egalik (bolalarni o'ziga jalb etishni bilish, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilish va h.o.lar);
- gnostik (bilish) malakalariga egalik (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay olish, o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi va b.sh.lar);
- ijodiy xislatlari (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilish, talabalarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati va h.o.lar)¹.

V.A.Slastyonin, A.J.Ajibaevlar "pedagoglik kasb tarbiyasi" tushunchasini quyidagicha izohlashadi: "Natijasi bo'lajak pedagog tomonidan kasbiy qadriyatlarni va ideallarni egallash, uning ma'naviy ehtiyojlarini va qiziqishlarini, ijtimoiy qimmatga ega motivlarni kengaytirish, hissiy, axloqiy va estetik tuyg'ularni, empatik qobiliyatlarni boyitish, amaliy pedagogik ko'nikma, malaka, odatlarni, o'z-o'zini refleksiya qilish tajribasini egallash kabi shaxs xususiyatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan tadrijiy dialektik harakatdir".

¹ Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. – Т.: Ўзбекистон, 1999.



Pedagogik mutaxassislik – mazkur kasb doirasidagi, ta’lim natijasida egallangan bilim, ko’nikma va malakalar yig’indisini tavsif etuvchi, hamda ularning qo’yilishi va o’zlashtirayotgan malakasiga muvofiq muayyan kasbiy-pedagogik vazifalarni hal etilishini ta’minlovchi faoliyat turi.

Pedagogik mutaxassislik – pedagogik ixtisos doirasidagi muayyan faoliyat turi. U aniq mehnat predmeti va mutaxassislikka doir funktsiya bilan bog’liqdir.

Pedagogik malaka – mutaxassisning ma’lum turdagi vazifani hal etishdagi imkoniyatlarini ifodalovchi kasbiy-pedagogik tayyorlanganlik darajasi va ko’rinishi.

Tabiiyki, oliy ta’lim muassasasiga qabul qilingan talaba uchun yangi vazifalar (kasbiy faoliyatni egallash) va mavjud imkoniyatlar, o’quv faoliyatini tashkil etishga bo’lgan munosabatlarning yangi tizimi o’rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Kasbiy tayyorgarlik yo’lining o’ziyoq, talabani ijtimoiy maqomni tez o’zgartira olishini talab etadi: oliy ta’lim muassasadagi o’qish davrining boshlanishidayoq, u talaba, so’nggida esa, talaba maqomini muvaffaqiyatli o’zgartira olishi zarur. Bularning barchasi ma’naviy madaniyat asosida bo’lajak o’qituvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonini jadallashtirishni taqozo etadi.

Ma’naviy madaniyatni rivojlantirish asosida bo’lajak o’qituvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- 1) bo’lajak o’qituvchilarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatda o’z-o’zini rivojlantirishga tayyorlash;
- 2) bo’lajak o’qituvchilarning hayot mazmunini ifoda etuvchi maqsadlarini rivojlantirish, ularning o’z ehtiyoj va imkoniyatlarini to’la anglab etishlariga ko’maklashish;
- 3) shaxslararo va kasbiy faoliyatga doir munosabatlar tizimida ularni o’z o’rnini aniq belgilay olish va o’z-o’zini namoyon qila olishga o’rgatish;
- 4) bo’lajak o’qituvchilarning mustaqil ta’limi tashkil etishda faoliyatli-munosabatli yondashuvni joriy etish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish;
- 5) bo’lajak o’qituvchilarda insonga (o’z-o’zini xolis baholash, o’z-o’zini hurmat qilish, qadr-qimmat, or-nomus, vijdon) va olamga nisbatan (insonparvar, demokratik, dialektik, ekologik tafakkur) yuksak axloqiy munosabatini shakllantirish;
- 6) bo’lajak o’qituvchilarja tashkilotchilik va boshqaruvga doir fazilatlarini rivojlantirish;
- 7) bo’lajak o’qituvchilarni murakkab pedagogik va hayotiy vaziyatlarda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlar qabul qilishga tayyorlash.

Bo’lajak o’qituvchilarni ijtimoiylashtirishda ma’naviy madaniyat-ning o’rni pedagogik kasbiga doir qadriyatlarni yuzaga chiqarishda va pedagogik kasbiga kirish jarayoni sifatida talabalar tomonidan mazkur qadriyatlarning interiorizatsiyasida namoyon bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy madaniyat bo’lajak o’qituvchi shaxsini ijtimoiylashtirishning muhim omili sifatida jamiyatdagi qadriyatlarni o’zlashtirish va ijtimoiy va shaxsiy etuklikka erishish asosida ijtimoiy faollik ko’rsatish, o’z maqsadlarini mustaqil aniqlay olish va ularga erishish yo’llarini belgilay olish, jamiyatdagi o’z o’rniga ishonch hosil qilish manbai bo’lib xizmat qiladi.

References:

1. Almetov N.Sh."O’quv tarbiya jarayonidaxalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish".-Chimkent.b 1993



2. Avliyakov "Pedagogik texnologiya"
3. Jumaboyev Y. Insonning hayot mazmunu. "Fan va turmush", 1996, 3-son
4. Davron A. Ma'naviyat dahosini tavof etaylik. Millat va taraqqiyot. "Vatan", 1999.
5. Davlatshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.-T.: O'zbekiston, 1999
6. Otamuratov S., Husanov S., Ramatov J. Ma'naviyat asoslari. "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti", Tohkent. 2002-yil
7. <http://elebrary.ru/item.asp?=21138521>